“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфулловна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	



TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Jabbarov Nodir Umirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari kredit amaliyotida uchrayotgan asosiy muammolar – kredit risklarining oshishi, garov siyosatining yetarli darajada takomillashmaganligi, kredit monitoringi sustligi va muammoli kreditlar (NPL) ulushining ko'payishi tahlil qilinadi. Tadqiqot kredit portfeli sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlab, ularni kamaytirishga qaratilgan yechimlarni, jumladan, kredit skoringini mustahkamlash, axborot almashinuvi tizimini rivojlantirish, muammoli kreditlarni qayta ko'rib chiqish va kredit siyosatini xalqaro talablarga moslashtirish kabi takliflarni ishlab chiqadi. Natijalar tijorat banklari kredit amaliyotini takomillashtirish va kredit risklarini boshqarishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kredit amaliyoti, tijorat banklari, kredit riski, garov siyosati, muammoli kreditlar, kredit monitoringi, skoring, restrukturizatsiya, xalqaro standartlar.

Abstract. This article analyzes the key challenges observed in the credit operations of commercial banks in Uzbekistan during the modernization of the national banking system. The study examines the rise in credit risks, the insufficient development of collateral policy, weak credit monitoring, and the increase in the share of non-performing loans (NPLs). Factors negatively affecting the quality of the credit portfolio are identified, and solutions aimed at reducing them are proposed, including strengthening credit scoring, improving information exchange systems, revising non-performing loans, and aligning credit policy with international standards. The results contribute to improving credit practices in commercial banks and strengthening credit risk management.

Key words: credit operations, commercial banks, credit risk, collateral policy, non-performing loans, credit monitoring, scoring, restructuring, international standards.

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в кредитной деятельности коммерческих банков Узбекистана в условиях модернизации банковской системы. Рассматриваются рост кредитных рисков, недостаточная развитость залоговой политики, слабость кредитного мониторинга, а также увеличение доли проблемных кредитов (NPL). Выявлены факторы, негативно влияющие на качество кредитного портфеля, и предложены решения по их снижению: усиление кредитного скоринга, совершенствование системы информационного обмена, пересмотр проблемных кредитов и приведение кредитной политики в соответствие с международными стандартами. Полученные результаты способствуют совершенствованию кредитной практики коммерческих банков и укреплению системы управления кредитными рисками.

Ключевые слова: кредитная деятельность, коммерческие банки, кредитный риск, залоговая политика, проблемные кредиты, кредитный мониторинг, скoring, реструктуризация, международные стандарты.

KIRISH

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda chuqur institutsional va texnologik transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bank sektorini erkinlashtirish, moliyaviy bozorlarda raqobatning kuchayishi hamda xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich moslashish



talablari tijorat banklari faoliyatining barcha yo'nalishlariga, xususan kreditlash amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Kreditlash iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishning asosiy mexanizmi bo'lib, banklar daromadlarini shakllantirish, aktivlar sifatini ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kredit jarayonlarining samaradorligi, shaffofligi va barqarorligi bank tizimi transformatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Biroq transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi tijorat banklarining kredit faoliyatida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kredit risklarining ortib borishi, garov ta'minoti siyosatining institutsional jihatdan yetarli darajada takomillashmaganligi, kreditlarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarining zaifligi, shuningdek muammoli (qaytmayotgan) kreditlar ulushining barqaror o'sishi banklar uchun jiddiy xavf omiliga aylanmoqda. Ushbu muammolar kredit portfeli sifatining pasayishiga, likvidlik darajasining qisqarishiga, aktivlar rentabelligining susayishiga hamda banklarning umumiy moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro reyting agentliklari talablari, Bazel qo'mitalarining prudensial standartlari hamda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llanilayotgan kredit risklarini boshqarish mexanizmlari O'zbekiston bank tizimida zamonaviy yondashuv va uslublarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, riskga asoslangan skoring modellari, kredit axborotlari almashinuvi tizimlarini integratsiyalash, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni restrukturizatsiya qilish strategiyalarini takomillashtirish kredit jarayonlari sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Tijorat banklarining kredit amaliyoti, kredit risklari hamda kredit portfelini boshqarish masalalari xalqaro bank nazariyasi va moliya fanida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Mazkur yo'nalish bo'yicha fundamental nazariy va amaliy asoslar, avvalo, mashhur iqtisodchi olimlar Frederic S. Mishkin, Anthony Saunders, Marcia Millon Cornett hamda Joseph Sinkeylarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan.

F.S. Mishkin (2019) tijorat banklari kredit amaliyotida yuzaga keladigan muammolarning asosiy manbaini, avvalo, axborot assimetriyasi, "salbiy tanlov" riski va "mas'uliyatsiz xulq-atvor" (moral hazard) riski bilan izohlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, mijoz to'g'risida yetarli va ishonchli axborotning mavjud emasligi kredit risklarining ortishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida kredit portfeli sifatining yomonlashuvi va muammoli kreditlar ulushining oshishiga sabab bo'ladi. Shu bois F.S. Mishkin banklar faoliyatini prudensial tartibga solish, kapital yetarliligi talablarini kuchaytirish hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish kredit risklarini cheklash va tijorat banklari barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv transformatsiya jarayonida O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini kamaytirish uchun institutsional tartibga solish va kapitallashuv talablarini mustahkamlash zarurligini asoslab beradi.

O'z navbatida, A. Saunders va M. Cornett (2022) kredit risklarini aniqlash, o'lchash va boshqarishning zamonaviy usullarini kompleks tarzda tahlil qiladilar. Mualliflar kredit portfeli risklarini pasaytirishda riskga asoslangan skoring modellarini joriy etish, mijozlarning kreditga layoqatligini reyting asosida baholash, portfelni diversifikatsiya qilish orqali risklarni taqsimlash hamda kredit monitoringi jarayonlarini tizimli ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ularning fikricha, kreditlar bo'yicha muntazam monitoring, erta ogohlantirish indikatorlari va qaytmayotgan kreditlarni (NPL) erta aniqlash tizimlari muammoli kreditlar ulushini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekiston tijorat banklarida kredit amaliyotini isloh qilish, xususan skoring tizimlarini kuchaytirish, kredit monitoringini raqamlashtirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda kredit risklarini samarali boshqarish bo'yicha metodologik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining kredit amaliyoti transformatsiyalash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularni kamaytirish mexanizmlari kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot doirasida kredit operatsiyalarining nazariy-huquqiy asoslari, kredit siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillari, shuningdek kredit resurslarining asosiy manbalari – depozitlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish kreditlari, xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari hamda bank kapitali imkoniyatlari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, kredit risklarini keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi omillar, kredit portfeli sifati ko'rsatkichlari hamda ularning bank faoliyatiga ta'siri iqtisodiy-statistik usullar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi hamda ularning kredit-investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda kredit amaliyotining samaradorligi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, transformatsiyalash



jarayonida kredit portfeli sifati, kredit siyosati shaffofligi va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi banklarning strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, real sektordagi yirik loyihalarni moliyalashtirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Kredit tizimining samarali ishlashi ko'p jihatdan kredit ajratish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'minot qiymatini baholash aniqligi, kredit monitoringi sifatining yuqoriligi hamda kredit resurslari bilan bog'liq risklarning minimallashtirilishiga bog'liqdir.

Transformatsiya jarayonida kreditlar bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar turli omillar bilan izohlanadi. Xususan, kredit siyosati talablarining yetarli darajada aniq belgilanmaganligi, kredit olish mexanizmlarining murakkabligi, kredit oluvchilarni baholashda zamonaviy scoring va risk-modellashtirish vositalarining cheklangan darajada qo'llanilishi, kredit ta'minoti qiymatini aniqlashdagi noaniqliklar hamda kredit monitoringi tizimlarining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi ushbu muammolarning asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni takomillashtirish kredit amaliyoti sifatini oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va banklarning investitsion salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda global moliya bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlar, kapitallar harakati hajmining ortishi hamda moliyaviy instrumentlarning diversifikatsiyalanishi tijorat banklaridan kredit portfeli samarali boshqarish, risklarni aniqlash va ularni pasaytirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. O'zbekiston sharoitida kredit amaliyotini transformatsiya qilish jarayonida milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, bank tizimining institutsional rivojlanish bosqichi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar hamda real sektor ehtiyojlari muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois kredit siyosatini optimallashtirish, kredit baholash standartlarini takomillashtirish va kredit jarayonlarini raqamlashtirishni chuqurlashtirish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Tijorat banklarining kredit amaliyotini transformatsiya qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini samarali kredit resurslariga aylantirish, kreditlash jarayonida shaffoflikni oshirish, kredit risklarini minimal darajaga tushirish hamda ajratilgan mablag'larni iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat. Bunda korxonalar, xususiy sektor, kichik biznes va aholi ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun barqaror kredit manbalarining mavjudligi bank faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va moliyaviy raqobatning kuchayishi banklar faoliyatida kredit resurslaridan oqilona foydalanish zaruratini yanada oshirmoqda. Kredit portfeli sifatining pastligi, riskli kreditlar hajmining ortib borishi va muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, moliyaviy tizimda qo'shimcha tavakkalchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu holat kredit amaliyotini modernizatsiya qilish, ichki tartib-taomillarni mustahkamlash, kredit baholashning zamonaviy metodologiyalarini joriy etish va raqamli monitoring tizimlarini kengaytirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit jarayonlarini raqamlashtirmasdan turib kredit risklarini kamaytirish, kredit portfeli optimallashtirish va banklar barqarorligini ta'minlash qiyinligi ayon bo'lmoqda. Kredit siyosatining zamonaviy instrumentlarini amaliyotga joriy etish tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bilan birga, kredit amaliyotidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Biroq so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator tizimli masalalar mavjud bo'lib, ular banklarda kredit risklarini chuqur tahlil qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslarning yetarli emasligi, kredit baholashning xalqaro standartlari keng qo'llanilmayotgani hamda kredit jarayonlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur tizimli muammolarning vujudga kelishiga quyidagi asosiy omillar sabab bo'lgan:

- yaqin davrlargacha kreditlashda yirik korxonalar uchun imtiyozli shartlarning mavjudligi va kredit resurslari bozorida raqobatning past darajada shakllangani;
- tijorat banklari o'rtasida xavfsiz kredit portfeli shakllantirish bo'yicha raqobatning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- real sektor kreditlash ehtiyojlarining muqobil moliyalashtirish manbalari hisobidan qoplanib kelgani;
- kredit tahlili va risklarni baholashda ilg'or modellar hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash jarayonining sustligi.

Mazkur tizimli muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, kredit bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirib, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlar yaratish zarur. Shu bilan birga, tijorat banklarida xavfsiz kredit portfeli bo'yicha ichki standartlarni kuchaytirish, kredit baholash jarayonlarida raqamli scoring tizimlarini joriy etish, risklarni prognozlovchi analitik modellarni keng qo'llash hamda kredit monitoringi tizimini to'liq raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Real sektorni moliyalashtirishda muqobil manbalarga ortiqcha tayanishni kamaytirish uchun kredit resurslarini diversifikatsiya qilish va banklarning kredit siyosatini bozor mexanizmlariga yaqinlashtirish talab etiladi.



1-jadval. O'zbekistonda kreditlar bozorining SWOT tahlili[3]

Strengths (Kuchli tomonlar)	Weaknesses (Zaif tomonlar)
➤ So'nggi yillarda bank tizimining transformatsiyasi natijasida kreditlash hajmi yil sayin oshayotganligi; ➤ Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining bosqichma-bosqich liberallashtirish raqobat muhitini mustahkamlanganligi; ➤ Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kredit liniyalari mavjudligi; ➤ Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) bilan hamkorlikda kredit liniyalari kengayganligi; ➤ Kreditlar bozorida raqamli texnologiyalar, orqali kreditlash tizimlari joriy etilganligi; ➤ Kredit byurolari faoliyatining kengayishi orqali mijozlarning kredit tarixi shakllanlanganligi.	➤ Tijorat banklarining kredit portfelida davlat buyurtmalari asosidagi loyihalar ulushi yuqori, bu esa bozor tamoyillarini cheklanganligi; ➤ Kredit resurslarining katta qismi qisqa muddatligi; ➤ Risklarni baholash tizimi yetarli darajada takomillashmaganligi; ➤ Kichik biznes va startaplar uchun garov talablarining yuqoriligi ularning kreditga kirish imkoniyatini cheklanganligi; ➤ Bank sektorida davlat ishtirokining yuqoriligi va kapital bazasini mustahkamlashda davlat ko'magiga bog'lanib qolishlik; ➤ Bank majburiyatlari tarkibida uzoq muddatli resurslar ulushining pastligi; ➤ Mahalliy kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish darajasi pastligi.
Opportunities (Imkoniyatlar)	Threats (Tahdidlar)
➤ Raqamli bank xizmatlarining kengayishi natijasida kreditlash jarayoni soddalashmoqda; ➤ Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish imkoniyati oshganligi; ➤ Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iste'mol kreditlashni barqaror rivojlantirish mumkinligi; ➤ Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali kredit risklarini kamaytirish mumkinligi;	➤ Aholi real daromadlarining pasayishi kreditlarni qaytarish qobiliyatini zaiflashishi; ➤ Garov aktivlari bozor qiymatining pasayishi banklarning likvidlik darajasiga xavf; ➤ Moliya sektoridagi texnologik o'zgarishlar va raqobatning kuchayishi; ➤ Kichik va o'rta biznes sektorida rasmiy hisobot yuritish madaniyatining pastligi bank riskini oshirishi; ➤ Mintaqadagi yuqori investitsion risklar;

Mazkur chora-tadbirlar bilan bir qatorda, kredit portfeli sifatini oshirish uchun tijorat banklarida riskga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirish, kredit xodimlarining kasbiy malakasini muntazam oshirib borish hamda xalqaro standartlar (Basel II/III) doirasida ishlab chiqilgan kredit risklarini baholash metodologiyalarini milliy bank amaliyotiga integratsiya qilish zarur. Kredit tahlili jarayonlarida big data texnologiyalari, avtomatlashtirilgan monitoring va analitik tizimlardan foydalanish kredit risklarini erta aniqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shuningdek, kredit ta'minotini baholash jarayonida yagona metodologik standartlarni joriy etish va elektron kadastr ma'lumotlari bilan integratsiyalashgan baholash platformalarini yaratish ta'minot qiymatini obyektiv aniqlashga hamda kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Kredit oluvchilarni baholashda zamonaviy skoring modellari, xususan xulq-atvor reytinglari, pul oqimlari (cash flow) tahlili va operatsion risk indikatorlaridan foydalanish kreditlash bo'yicha muqobil, asosli va aniqroq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, banklararo axborot almashinuvi tizimlarini kengaytirish, kredit byurolari ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchlilikini oshirish, shuningdek qarzdorlarning moliyaviy intizomini mustahkamlovchi institutsional mexanizmlarni joriy etish kredit bozorida shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlarning kompleks amalga oshirilishi kredit amaliyotida yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga hamda bank tizimi transformatsiyasi jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari kredit amaliyotida kuzatilayotgan tizimli muammolar bank faoliyatining barqarorligi hamda kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik korxonalar uchun mavjud bo'lgan imtiyozlar, kredit bozorida raqobat muhitining sustligi, real sektorning muqobil moliyalashtirish manbalariga tayanishi hamda



kredit risklarini baholashdagi metodologik kamchiliklar ushbu muammolarning chuqurlashuviga olib kelgan. Shu bois kredit jarayonlarini transformatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqobat muhitini kuchaytirish, kredit siyosatini standartlashtirish va risk-menejment tizimini xalqaro amaliyotga moslashtirish bank tizimini rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Taklif etilgan yechimlar kredit bozorining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda tijorat banklarining iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Transformatsiya jarayonida kredit amaliyotining modernizatsiya qilinishi banklarning moliyaviy barqarorligini kuchaytirishga, real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mishkin F.S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets (12th ed.). Pearson.
2. Saunders A. & Cornett M.M. (2022). Financial Institutions Management: Risk Management Approach (10th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Sinkey J.F. (2013). Commercial Bank Financial Management (9th ed.). Prentice Hall.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Banklar faoliyatini tartibga solish bo'yicha prudensial me'yorlar va uslubiy ko'rsatmalar to'plami. Toshkent: O'zR MB Matbuot xizmati.
5. Bazel qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision). (2017). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Bank for International Settlements.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
